



O'RTA OSIYODA MILLIY-HUDUDIY CHEGARALANISHNING O'TKAZILISHI: MAQSAD, MOHIYAT VA OQIBAT (XORIY TADQOQOTCHI OLIMLARI NIGOHIDA)

Akromova Shoistaxon Jaloliddin qizi

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Tarix fakulteti Tarix (Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha)
yo'nalishi 5-bosqich talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8137490>

ARTICLE INFO

Received: 30th June 2023

Accepted: 09th July 2023

Online: 10th July 2023

KEY WORDS

Turkiston, bolshvek, sovetlar, avtonomiya, panturkizm, panislomizm, bosmachilik, milliy-hududiy chegaralash, primitiv turmush tarzi, bo'lib tashla - hukumdorlik qil tamoyili, sartlar.

ABSTRACT

Turkiston azaldan O'rta Osiyo mintaqasidagi xalqlarning yagona maskani va umumiy vatani bo'lib kelgan. Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalarining tub aholisi asrlar davomida urf-odatlarini, an'analarini turmush tarzi, diniy e'tiqodlari jihatidan bir - biriga juda yaqin bo'lgan bu mintaqaga yagona hudud, diniy e'tiqod, o'z xo'jaligi va madaniyatining mushtarakligi bilan ajralib turgan. Turkiston hududidagi davlatlarning har birida turkiy xalqlar: o'zbek, turkman, qoraqalpoq, qozoq, va qirg'iz shuningdek tojik xalqi azaldan tarkib topgan edi. Turkiston mintaqasining xalqlari bu yerni o'zlarining yagona yurtlari, asl Vatani deb bilgan. Mintaqa xalqlari yagona va bir degan g'oya avloddan-avlodga o'tib kelgan, milliy yetakchilarning ijtimoiy - siyosiy va amaliy faoliyatlarida o'z aksini topgan. Ana shunday qadimiy Turkiston ko'p yillar davomida mustamlakachiilar zulmi ostida ezildi. Mustamlakachilar o'lkani boshqarishda avvalo o'zlariga xizmat qiluvchi mukammal tizimini joriy qilishga intildilar. Bunda ular "bo'lib tashla - hukumdorlik qil" degan tamoyilga amal qildilar.

Ma'lumki, XX asr oxirida jahon tarixida misli ko'rilmagan voqealar yuz berdi. Bu Sovet Ittifoqining parchalanishi bilan bog'liq edi. Uning parchalanishi natijasida o'n beshta suveren davlatlar tashkil topdi va ularning barchasida demokratik tuzumlar o'rnatildi. Bu davrda tarixga haqqoniy yondashish qaror topdi. Bizning mustaqil O'zbekistonimizda ham tarix fanining o'rni va ahamiyati osha bordi. Mustaqilligimizning dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan tarix fanini rivojlantirishga doir qator qarorlar qabul qilindi. Islom Karimov o'zlarining bir qator asarlarida tarixga haqqoniy yondashish zarurligini ta'kidlaganlar. Ularning bir qator asarlarida O'rta Osiyoda amalga oshirilgan milliy hududiy chegaralanish masalasiga to'xtalib o'tgan. Masalan, "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqaroalik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida milliy hududiy chegaralanish masalasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Aslida bolshveklar o'tkazgan bu milliy hududiy chegaralanish O'rta Osiyo xalqlari o'rtasidagi



bo'lajak millatlararo munosabatlar jarayonlar ostiga ma'lum vaqtda portlaydigan mina qo'yish degan gap edi, ular favqulodda vaziyatda portlab, turli nizo va keskin holatlar keltirib chiqarishi mumkin edi."¹

Albatta, ularning barchasida tarixga sinfiylik nuqtai nazaridan qarash yakun topdi va tarix fani kommunistik mafkuradan holi ravishda rivojlandi. To bugungi kungacha bo'lgan davr oralig'ida bu davlatlardan ko'plab tarixchi olimlar yetishib chiqdilar. Ular o'z millatlarining haqqoniy tarixini yoritishga astoydil kirishdilar. Bu davrda sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan milliy hududiy chegaralanish masalasiga bo'lgan qarash o'zgardi.

Barchamizga ma'lumki, XX asrning 20-yillarida Markaziy Osiyoda o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanishdan o'tkazilgan maqsad o'zbeklar davlatchiligiga bolta urish, ularning mintaqadagi madaniy-siyosiy hukmronligini yo'q qilish edi; Mazkur masala yuzasidan olib borilgan qator ilmiy izlanishlar asosan o'zbek tarixshunosligi va Sovet adabiyotlari asosida shakllantirilgan turli monografiya va maqola ko'rinishida yuqorida keltirilgan sabablar asosida o'rganilganligini ko'rishimiz mumkin. Mavzuning Markaziy Osiyo xalqlari hayotida dolzab ekanligini hisobga olgan holda mazkur masala yuzasidan Markaziy Osiyo va G'arb tarixchilari o'z asarlarida keltirib o'tgan ayrim mulohazalarga to'xtalib o'tishni tarixiylik nuqtayi nazardan, tarixga xolisona yondashuvni yanada izchillashtirish asnosida yoritishga harakat qildik.

Xususan, 2004-yilda Qirg'iziston Respublikasida chop etilgan "Qirg'iziston tarixi" nomli monografiyasida ko'rsatilishicha, O'rta Osiyoning miliy-hududiy taqsimoti va Qirg'iz Avtonom viloyatining tuzilishi, uning huquqiy jihatdan cheklanganligidan qat'iy nazar, qirg'iz xalqining taqdiri uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Negaki, asrlar davomida mazkur hudud patriarxal urug'chilik, qaramlik va Rossiya imperiyasining chekka o'lkasi bo'lishi tufayli Turkistonning turli viloyatlarida bo'linib qolgan qirg'iz xalqi qaytadan ma'muriy bir butun hududga – avtonom viloyat hududiga birlashtirildi. Cheklangan avtonomiya shaklida bo'lsa-da, qirg'iz xalqining bir milliy davlatga birlashishi – xalqning hududiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarini mustahkamlash va millat bo'lib shakllanishi uchun qulay sharoit yaratdi. Qirg'iz xalqi o'zining milliy davlatchiligini bundan buyon rivojlantirish, davlat hokimiyati va davlat boshqaruvi tizimini tuzish imkoniyatiga ega bo'ldi. Qirg'izistonning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti tezlashdi. Milliy avtonomiyaning e'lon qilinishi qirg'iz xalqi tarixidagi keskin burilishlardan biri bo'lib qoldi².

Mustaqillik davrida sovet hukumati tomonidan milliy hududiy chegaralanish amalga oshirilgan hududlarda ko'pgina milliy va etnik nizolar kelib chiqdi. Bu o'z navbatida ko'pgina xorijiy tadqiqotchi olimlar hamda tarixchilarning e'tiborini o'ziga tortdi. Mana shunday tarixchilardan biri, Moskva shahrining sobiq meri G. Popovning "Ошибка в проекте Ленинский тупик" asarida mazkur masalaga doir muhim ma'lumotlar berilgan. Bolshveklar rahbarlari bosib olgan o'lkalarni iloji boricha ko'proq ushlab turishlari uchun ham bu hududlarni millatlararo nizolar keltirib chiqarishi muqarrar bo'lgan hududlarga taqsimlashdi. Vaholangki, XX asrning 20- yillariga qadar Markaziy Osiyo hududida O'zbekiston, Qozog'iston,

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997. 61-bet.

²



Qirg'iziston va Tojikiston kabi davlatlar mavjud emas edi. Milliy hududiy chegaralanish o'tkazilishi natijasida mazkur davlatlar o'rtasidagi chegaralar shunday o'tkazildiki, millatlararo nizolar bo'lishini oldindan ko'zda tutar edi³.

1936-yil Qirg'iziston Respublikasi tashkil etilgan vaqtda Qirg'iziston SSR tarkibiga Farg'ona vodiysining aholisining ko'pchiligini o'zbeklar tashkil etadigan O'sh va Jalolobod viloyatlari ajratib berildi. O'sha paytda mazkur hududda yashovchi qirg'izlar bor yo'g'i 10 foizni ham tashkil etmas edi. Bu qaror esa sovet uslubiga monand ifodalanib quyidagicha izohlandi: "Sizlarning qayerda yashashingizning ahamiyati yo'q – O'zbekistondami yoki Qirg'izistondami, chunki bizda umumiy Vatan, hammamiz uchun SSSR mavjud".⁴

Bundan tashqari O'sh Davlat Universiteti Professori, tarix fanlari nomzodi T. Qodirov hamda tarix fanlari nomzodi, O'sh Davlat Universiteti dotsenti S.Smadiyarovlarning "Конфликтов в Киргызистане и Центральной Азии" nomli maqolalari 2011- yil iyul oyidagi O'sh voqealariga bag'ishlangan bo'lib, unda ham aynan milliy hududiy chegaralanish masalalarining salbiy oqibatlari haqida xolisona fikr yuritilib, jumladan mazkur maqolada quyidagi fikrlarni uchratishimiz mumkin: "Sovet Ittifoqi parchalanganidan so'ng O'rta Osiyoning mustaqil davlatlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishdagi eng qiyin masala bu ular o'rtasidagi chegaralarni belgilash masalasi bo'lib qoldi. Mamlakatlar o'rtasidagi chegaralar masalasi borasida ko'p bahs va muzokaralar bo'lib, bu hattoki chegara hududlardagi millatlar o'rtasidagi nizolarga ham sabab bo'ldi. Mustaqil, suveren Qirg'iziston davlati uchun ham milliy chegaralarning belgilanishi uhim ahamiyat kasb etadi. O'rta Osiyodagi milliy hududiy muammolarning ildizi uzoqqa borib taqaladi. Buning sababi esa 1924-yilda yuqoridan turib amalga oshirilgan milliy hududiy chegaralanishdir..."

Yuqorida keltirilgan xorijiy taqiqotchil olimlar asarlari tahlilidan olinadigan saboq shundan iboratki, hattoki bir davlat ichidagi hududiy nizolar doimo millatlar o'rtasidagi munosabatlarning yomonlashuviga olib keladi. Sobiq Ittifoq davlatlarining bugungi kundagi mustaqillik davrlarida bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ilgari xo'jaliklar o'rtasida muammo bo'lgan yer talashishlar bugungi kunda o'z-o'zidan davlatlararo muammoga aylanib qolmoqda⁵.

Bundan tashqari www.allbest.ru saytida berilgan Tojikistonning milliy-hududiy chegaralanishiga oid maqolada bo'lsa yuqorida keltirilgan fikrlardan biroz boshqacharoq fikrlarni uchratish mumkin. 1924-yil 14-oktabrda SSSR MIK ning II sessiyasi milliy-hududiy chegaralanish masalasini hal qildi va Turkmaniston SSR, O'zbekiston SSR, O'zbekiston SSR tarkibida Tojikiston ASSR, Qozog'iston ASSR va RSFSR tarkibida Qoraqirg'iz va Qoraqalpoq avtonom viloyatlari tashkil etildi.

Bizgacha ma'lum bo'lgan sovet adabiyotlari Barcha etnik guruhlariga milliy hududlarni berish hamda o'z taqdirini o'zi hal qilishi mumkinligi borasidagi bolshveklarning umumiy siyosatiga qaramay, 1920 va 1930-yillarda bir necha millat va elat vakillari o'z hududlaridan tashqarida qoldi. Ko'p holatlarda bu guruhlar yo keng tarqalib ketgan yoki bu ozchiliklar boshqa guruh uchun milliy respublika sifatida belgilangan joylarda to'plangan, masalan, ba'zi millatlardagi aholining uchdan bir qismini tashkil qilgan polyaklar va yahudiylar millat deb hisoblangan. Ukraina yoki Belorussiya SSR hududlari yoki ba'zi shahar va shaharchalarda

³ Credo. ru

⁴ Credo. ru

⁵ Credo. ru



aholining qariyb yarmi yahudiylar bo'lsada, ammo biron bir hududiy birlik tashkil etilmagan (lekin, Rossiyaning Uzoq Sharqida 1934-yilda yahudiy avtonom viloyati tashkil etilgan). Asosan bu sohalarda yahudiyzabon yahudiyalar uchun yahudiy tilining Belorus SSR davlat tili sifatida belgilanishi va Rossiyaning yirik shaharlarida yahudiy tilida tegishli milliy xalq ta'limi tizimi, shu sohalarda yahudiy adabiyoti va teatrining targ'ib qilinishi kabi siyosatlar olib borildi⁶.

Mazkur davrga oid qator ilmiy tadqiqot ishlari bilan mashhur bo'lgan amerikalik tadqiqodchi olim Eduard Allwarth o'zining mashhur "Zamonaviy o'zbeklar: O'n to'rtinchi asrdan to hozirgacha bo'lgan davr" ("The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century for the Present") asarida mazkur mavzu doirasida quyidagicha fikr bildirib o'tgan: 1923-1924-yillarda O'rta Osiyoda o'tkazilgan ma'muriy-hududiy chegaralanishdan o'tkazilishdan bosh maqsad birinchi navbatda o'zbeklarning O'rta Osiyo xalqlarini birlashtirish salohiyatiga barham berishdan iborat edi. Buning sababi shunda ediki, yuqorida qayd etilgan xalqlarni birlashtirish g'oyalari bevosita o'zbeklar bilan bog'liq edi. Bu haqida Allwarth shunday deydi: o'zbeklar madaniy sohada ham, siyosiy sohada ham Markaziy Osiyoning janubiy qismida yuqori mavqeiga ega edi. Ruslar uchun o'zbeklar uch tomonlama xavf solar edi. O'zbeklar Markaziy Osiyoning o'troq aholi yashaydigan mintaqalarida ko'pchilikni tashkil qiladi va butun janubiy hududlarning ijtimoiy va madaniy hayotida faol ishtirok etardi. Agar o'zbeklar o'zlari yashaydigan hududlarda siyosiy faolitetini davom ettiraversalar ular mintaqa ishlariga bundan buyon ham kuchli ta'sir ko'rsataverar edi. Markaziy Osiyo xalqlariga nisbatan o'zbeklarda boshqa etnoslarni assimilyatsiya qilish ehtimoli katta edi. Bunday assimilyatsiya provardida o'zbeklar yashaydigan hududlarning doirasini kengaytirar va o'zbeklarning son jihatidan salmog'ini yanada oshirar edi. Aftidan bunday omillar Rossiyaning va mustabid tuzumning Markaziy Osiyodagi missiyasiga rahna solar edi, shu sababli ushbu masala 1917-yilning martidan keying o'n yillikda V. I. Lenin va I. V. Stalin tomonidan ilgari surilgan sotsial-demokratik ishchi partiyasining mafkurasi va siyosati yangi sovet hokimiyatining dasturiga aylangan kezda judayam dolzarb masalaga aylandi. Moskvadagi rahbarlar o'zbeklarning ta'siri kamaytirilsa, Markaziy Osiyoni boshqarish osonroq bo'lishini va boshqa etnik guruhlarni nazorat qilish imkoniyati keskin ko'tarilishini yaxshi fahmlar edi, Shu sababli avval mavjud bo'lgan uchta subyektni tugatib, Markaziy Osiyoni oltita ma'muriy birlikka parchalab tashlashni ko'zlovchi sovet siyosati bosh maqsad qilib belgilab olindi. Birinchi respublika bo'lmish Qozog'iston Respublikasi panislomizmga qarshi qaratilgan bolshveklarning ilk loyihalaridan biri edi.

"Turkiston va Rossiya imperiyasi taqdiri" ("Turkestan and the Fate of the Russian Empire") asarining muallifi Daniel Brower ruslarning qozoqlarga Chor Rossiyasi davridayoq xayrixoh bo'lganligi haqida shunday deydi: "Markaziy Osiyoda ruslar ikki xil madaniy zonaga duch keldi: ko'chmanchi qozoq va qirg'izlar katta hududlarni egallagan bo'lsa, o'troq xalqlar esa eng aholi zich mintaqaga joylashgan edi. K. P. fon Kaufman qirgizlar tabiiy va hanuzgacha primitiv prinsiplarga asoslangan o'ziga xos turmush tarziga egaligiga ishonchi komil edi. Primitiv turmush tarzi yovvoyilikka yaqin xususiyatni kasb etishi mumkin edi. Biroq uning nuqtayi nazaridan bunday turmush tarzi o'zida islom dinidan himoya qiluvchi kuchni

⁶Gessen, Masha (2016). Yahudiylar bo'lmagan joyda: Rossiyaning Yahudiy avtonom viloyati Birobidjanning qayg'uli va bema'ni hikoyasi (Birinchi tahriri). Nyu York.



mujassamlashtirardi. Uning real dalil isbotlarga emas balki batamom G'arb ijtimoiy nazariyasiga asoslangan qarashi bunday qoloq xalqlar murakkab dinga ega emasligini anglatar edi. Ko'chmanchilar rasman islom diniga e'tiqod qiladi, aslida bu dindan o'zini chetga oladi va muayyan diniy e'tiqodga ega emas. Islom dini dasht hududlarida hozirgi Qozog'iston hududida hukmronlik qilmasligi kerak. Ushbu xaqlarning kalajagi Rossiyaning Turkistondagi islom diniga nisbatan tutgan siyosatiga bog'liq. U kolonial siyosat olib boorish uchun etnik tafovutarni bilish zarurligiga amin edi. Amaliy faoliyat doirasida rus kuzatuvchilari shunday xulosaga keldi: Sartlar- bu eng avvalo urug'-aymoqlarga bo'linishdan voz kechgan savdogarlar, hunarmandlar yoki dehqonlardir. Demak G'arb andozalari bo'yicha sartlar Turkistonning tub aholisi orasida eng yuksak ijtimoiy mavqeini egallagan. Turkmanlar, qozoqlar va qirg'izlar insoniyat taraqqiyotining quyi pog'onasida joylashgan ko'chmanchilardir. K.P. fon Kaufman fikricha agar ko'chmanchilar ma'muriy hududiy jihatdan sartlarga yaqin joylarga joylashtirilsa ular fanatik, monofiq va poraxo'r mullalar, hojilar, avliyolar va darveshlarning qurbonlariga aylanadi. Shu sababdan mintaqa viloyatlaridagi okruglar va tumanlarning ma'muriy chegaralarini tuzib chiqishda sartlar hamda qirg'izlarni hududiy jihatdan qat'iy ajratish bosh maqsadga aylandi. K.P. fon Kaufmanning colonial boshqaruvi islom dinini tiyib turish va tub xalqlarning hurmatini qozonish imkonini beradigan bilimlarga asoslangan edi. Buni ro'yobga chiqarish uchun u birinchi qadamni ushbu hudud va xalqlarning noyob jihatlari bilan tanishishdan boshladi. So'ngra maxsus institutlar tuzilda va Rossiya hukmronligini o'rnatish uchun zarur bo'lgan siyosat yaratildi. Shundan keyin Turkistonni imperiyaning mustahkam hududiga aylantirishni boshlash mumkin edi. Qozoq respublikasini tashkil etishdan bosh maqsad O'rta Osiyodagi Turkiston va Rossiyadagi Tatariston, Qrim, Boshqirdiston va Kavkaz kabi turk o'lkalarida to'siq bo'ladigan hududni yaratish, islom bayrog'i ostida g'oyalarning Turkistondan Rossiyaning turkiy musulmon o'lkalariga tarqalishining oldini olish edi."

Tadqiqotchil olim Arne Haugen ""("The Establishment of National Republics in Soveit Central Asia") asarida qozoq dashtida olib borilgan mazkur siyosat haqida quyidagicha xulosa beradi: "Rossiya hukumati Markaziy Osiyoda sivilizatorlik missiyasini cheklangan miqdorda amalga oshirdi. Bir qancha rus maktablari ochildi va eng asosiysi ma'rifat yo'lida gazetalar chop etish yo'lga qo'yildi. Shunga qaramay bu ehtiyotkorona yondashuv edi. Chunki ruslarning ko'z o'nggida islom dini dahshatli fanatizmni qo'zg'atishi mumkin edi. Islom dini asta-sekin o'z ahamiyatini yo'qotishiga umid bog'lab u nazardan chetda qoldirildi, din e'tiborga olinmadi va yakkalab qo'yildi hamda har qanday hujum islom diniga emas uning tashkiliy tuzilmasiga qaratildi. Chor hukumati yuritgan bunday siyosat eng avvalo Markaziy Osiyoning janubiga taalluqlidir. Qozoq dashtlarida vaziyat tubdan farq qilar edi. U yerda janubdagiga nisbatan ruslar amalga oshirgan o'zgarishlar kuchliroq sezilar edi. Masalan dunyoviy ta'lim dasturi Turkistonga nisbatan qozoq dashtlarida ancha kengroq joriy etilgan edi. Bu tez orada intellektual kamolotga yetishishga va qozoq ziyolilarining paydo bo'lishiga olib keldi. Shuningdek Qozoq Respublikasining tashkil etilishi O'rta Osiyodagi bosmachilik harakati Rossiyaning Tatariston, Boshqirdiston, Kavkazdagi turkiy musulmon o'lkalariga tarqalishining oldini olar edi. Sovetlarning milliy hududiy chegaralanish o'tkazishga majburlagan sabablar to'g'ridan to'g'ri panturkizm, panislomizm hamda bosmachilik harakati bilan bog'liq edi".



Arne Haugen bu borada shunday deydi: “G‘arb nuqtayi nazariga ko‘ra bosmachilar chet ellik bosqinchilarga ya‘ni ruslarga qarshi milliy ozodlik kurashchilaridir”.

Boymirza Hayit fikricha: “Bosmachilik milliy ozodlik kurashchilarining uyushgan sa‘yi harakatini o‘zida mujassam etgan”. Olim bunday xulosaga kelishida I. V. Stalinning bayonotiga asoslanganligi birlamchi ahamiyat kasb etganligini anglash qiyin emas. I. V. Stalin bosmachilik arakati Markaziy Osiyo respublikalarini Sovet hokimiyatidan ajratib olishni maqsad qilgan deb ta‘kidlagandi.

References:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T: O‘zbekiston,1997.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.T: O‘zbekiston, 2009.
3. Alimova D., va boshq. O‘zbekiston tarixi. T.: Sharq, 2000.
4. O.Atamirzayeva, V.Gentshke, R.Murtazayeva. Узбекистан Многонациональный : Историко-Демографический Аспект. T.: Yangi asr avlodi, 2011
5. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. T.: Sharq, 2010.
6. Tursunov X. O‘zbekiston SSRning tashkil topishi. T.: Fan, 1957.
7. O‘zbekistonning yangi tarixi: O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Ikkinchi kitob. T.:Sharq, 2000.
8. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.: O‘zbekiston, 2006.
9. O‘zbekiston SSR tarixi. I.Mo‘minov tahriri ostida. T.: Fan,1971.
10. Крыльцов. И. И. Государственное размежевание Средне-Азиатских Республик//Вестник юстиции Узбекистана. 1925. №1.
11. Мухаммедяров Ш.Ф., К истории проведение национально-государствен-ного размежевания Средней Азии в 1924 г.// Советское Востоковедение. 1955. №1.
12. www.credo.ru
13. www.albest.ru